

TAJIRIBADAGI QUYONLARNI TIRIK VAZNI, TANA O'LCHAMLARINING O'SISH DINAMIKASI

Olim Mardanovich Mansurov, Farrux Serverovich Allashov
Quyunchilik seleksiyasi va genetika markazi kichik ilmiy xodimlari

Annotatsiya: Maqolada kaliforniya zotiga mansub yosh urg'ochi quyonlarning o'rtacha kunlik yoshi 52,7 kunni tashkil qilib, ularning o'rtacha tirik vazni 1345,2 g-ni, eksterer tana o'lchamlari o'rtacha 34 sm, ko'krak aylanasi o'rtacha 21,8 sm-ni tashkil qilib, olingan matematik o'lchovlarni statistik taxlilini o'rganish natijasida tana indeksi o'rtacha 64,10%-ni tashkil qildi. Tajribadagi quyonlarning o'rtacha 148,8 kunlik yoshiga kelib tirik vazni 2900,4 g-ni, tana uzunligi o'rtacha 50 sm, ko'krak aylanasi o'rtacha 32,2 sm-ni tashkil qildi.

Kalit so'zlar: o'rtacha kunlik, eksterer, tana uzunligi, sm, o'sish, rivojlanish, ko'krak aylanasi, tarozi.

Abstract. In the article, the average daily age of young female rabbits of the California breed is 52,7 days, their average live weight is 1345,2 g, the average external body dimensions are 34 cm, the average chest circumference is 21,8 cm, and the body index is the result of statistical analysis of mathematical measurements. average was 64,10%. By the age of 148,8 days, the rabbits in the experiment had an average live weight of 2900,4 g, an average body length of 50 cm, and an average breast circumference of 32,2 cm.

Kirish

Respublikamizda akseleratsiya texnologiyasini qo'llash orqali boqilayotgan quyonlarning tirik vazn o'sishi elektron tarozida yakkama-yakka tortish orqali, rivojlanishi olingan tana o'lchamlarini statistik hisoblash orqali va qon ko'rsatkichlarini zamonaviy laboratoriya uskunasi mindrav BC 20s apparatida o'rganildi.

Ishning maqsadi yosh o'suvchi urg'ochi kaliforniya zotiga mansub quyonlarning davrlar kesimida o'sish va rivojlanishini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot natijalari loyiha bo'yicha tadqiqotlar 2022–2024-yillarda Toshkent viloyatining Qibray tumanidagi "Quyunchilik seleksiyasi va genetika markazi"da olib borildi.

Respublikada urchitilayotgan quyon zotlarini biologik xususiyatlarini va mahsuldorlik ko'rsatkichlarini o'rganish bo'yicha monitoring o'tkazib, kaliforniya zotiga mansub quyonlarni elektron tarozida yakkama-yakka tortish hamda quyonlarni tana o'lchamlarini o'lchash orqali aniqlandi.

Zootexniya amaliyotida qishloq xo'jalik hayvonlarini o'sishi va rivojlanishini hamda go'sht maxsuldorligini o'rganish asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.



Tajribadagi kaliforniya zotiga mansub quyon bolalarining sanoat asosida boqishda qo'llanadigan omuxta em bilan oziqlantirib, mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan barcha ozuqa xarajatlari o'stirish hamda bo'rdoqilash davrida quyonlarning tirik vazni o'rganildi.

1-jadval

Tajribadagi yosh urg'ochi quyonlarni o'sish dinamikasi

Ko'rsatkichlar	Yoshi, kun	Tirik vazni, g	Tana uzunligi, sm	Ko'krak aylanasi, sm	Tana indeksi, %
O'rtacha	52,7	1345,20	34,00	21,80	64,10
Cv%	-	1,66	0,80	1,58	-
sx=	-	0,53	0,25	0,50	-

Tajribadagi kaliforniya zotiga mansub urg'ochi quyonlarning tug'ilgandagi tirik vazni o'rtacha 51,2 g-ni tashkil qilib, 52,7 kunlik yoshiga kelib o'rtacha 1292,5 g-ga, mutloq o'sishi tug'ilgandagi vazniga nisbatan 4,07 barobarga ortdi. Urg'ochi quyonlarning tana uzunligi o'rtacha 50 sm, ko'krak aylanasi o'rtacha 32,2 sm, tana indeksi o'rtacha 64,52%-ni tashkil qildi.

2-jadval

Tajribadagi yosh urg'ochi quyonlarning o'sish dinamikasi

Ko'rsatkichlar	Yoshi, kun	Tirik vazni, g	Tana uzunligi, sm	Ko'krak aylanasi, sm	Tana indeksi, %
O'rtacha	148,8	3124,8	50,00	32,20	64,52
Cv%	-	2,87	1,66	1,27	-
sx=	-	0,91	0,53	0,40	-

Tajribadagi urg'ochi quyonlarning o'rtacha yoshi 148,8 kunlik bo'lganida 3124,8 g-ni tashkil qilib, 52,7 o'rtacha kunlik yoshidagi tirik vazniga nisbatan mutloq o'sishi 1779,6 g-ga, yoki 1,32 barobarga ortgan ($R > 0,999$). Quyonchilikda tana o'lchamlari va tana indeksi ko'rsatkichlari asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. O'tacha tajribadagi quyonchalarning tana uzunligi 50 sm-ni tashkil qilib, 52,7 kunlik yoshiga nisbatan 16 sm yoki 1,47 barobarga, ko'krak aylanasi o'rtacha 10,4 sm-ga ortgan. Tana indeksi o'rtacha 64,52%-ni tashkil qildi.

Yosh urg'ochi quyonlarning o'sish dinamikasi

Ko'rsatkichlar	Yoshi, kun	Tirik vazni, g	Tana uzunligi, sm	Ko'krak aylanasi, sm	Tana indeksi, %
O'rtacha	237,3	3817,00	53,6	36,9	68,84
Cv%	-	3,08	1,05	1,19	-
sx=	-	0,97	0,57	0,47	-

Urg'ochi quyonlarning o'rtacha yoshi 237,3 kunlik bo'lganida 3817 g-ni tashkil qilib, 148,8 o'rtacha kunlik yoshidagi tirik vazniga nisbatan 692,2 g-ga ortgan yoki 18,14%-ga ortgan ($R > 0,99$). Tajribadagi quyonchalarning o'rtacha tana uzunligi 53,6 sm-ni tashkil qilib, 148,8 kunlik yoshiga nisbatan 3,6 sm-ga yoki 6,7%-ga, ko'krak aylanasi o'rtacha 4,7 sm-ga ortgan. Tana indeksi 237,3 kunlik yoshida o'rtacha 68,84%-ni tashki qildi.

Xulosa

O'zbekiston sharoitida quyonlarni boqishda olingan ma'lumotlardan kelib chiqib xulosa qilganimizda, Respublikamiz sharoitida boqilgan urg'ochi quyonchalar rivojlangan Evropa davlatlari ko'rsatkichlariga taqqoslaganda bizning sharoitimizda boqilgan quyonchalarning tirik vazni 8-11%-ga kam bo'lganligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adilova A., Xolmatov A. "Fermer xo'jaligida quyonchilik" O'zbekiston qishloq xo'jalik jurnali. № 11. 2010 y. 13b.
2. Xolmatov A., Ruziev R., Mamatiminov Sh.K., Xidirov K., Komilov A. Quyonlarni boqish, parvarishlash, ko'paytirish va davolash bo'yisha o'quv qo'llanma Toshkent 2019 y.
3. Ruziev R., Yuldashev D., Xidirov K. va boshqalar. Quyonlarni saqlash, oziqlantirish va naslchilik ishlari. Toshkent. Fan ziyosi"2023 y.150 b.